



JINOIY JAVOBGARLIK ASOSLARI VA UNING BOSHQA HUQUQIY JAVOBGARLIK TURLARIDAN FARQI

Ro'ziyev Dostonbek Rustam o'g'li

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti "Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrası
assistenti*

E-mail: druziyev84@gamil.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada jinoiy javobgarlik tushunchasi, uning vujudga kelish asoslari, jinoyat tarkibining ahamiyati hamda jinoiy javobgarlikning boshqa huquqiy javobgarlik turlaridan farqli jihatlari ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida jinoiy javobgarlik institutining konstitutsiyaviy va qonunchilik asoslari, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari hamda jinoiy jazolarni liberallashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: jinoiy javobgarlik, jinoyat, jinoyat tarkibi, huquqiy javobgarlik, sudlanganlik, ma'muriy javobgarlik, fuqaroviy javobgarlik, intizomiy javobgarlik, jinoyat huquqi, aybsizlik prezumpsiyasi.

Аннотация

В данной статье анализируются понятие уголовной ответственности, основания её возникновения, значение состава преступления, а также отличительные особенности уголовной ответственности от других видов юридической ответственности. Кроме того, рассматриваются конституционно-правовые основы института уголовной ответственности в Республике Узбекистан, современные судебно-правовые реформы и вопросы либерализации уголовных наказаний.

Ключевые слова: уголовная ответственность, преступление, состав преступления, юридическая ответственность, судимость, административная



ответственность, гражданско-правовая ответственность, дисциплинарная ответственность, уголовное право, презумпция невиновности.

Abstract

This article examines the concept of criminal liability, the grounds for its emergence, the significance of the corpus delicti, and the distinguishing features of criminal liability from other forms of legal liability. The paper also analyzes the constitutional and legal foundations of criminal liability in the Republic of Uzbekistan, recent judicial reforms, and issues related to the liberalization of criminal penalties.

Keywords: criminal liability, crime, corpus delicti, legal liability, criminal record, administrative liability, civil liability, disciplinary liability, criminal law, presumption of innocence.

Kirish: Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish jarayonida huquqiy javobgarlik institutining o'рни alohida ahamiyat kasb etadi. Huquqiy javobgarlik jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Huquqiy javobgarlikning turlari orasida jinoiy javobgarlik eng qat'iy va eng og'ir shakl sifatida ajralib turadi. Chunki jinoyat jamiyat, davlat va shaxs manfaatlariga jiddiy zarar yetkazuvchi yoki shunday zarar yetkazish xavfini tug'diruvchi ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi [1].

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish, inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, jinoyat qonunchiligini takomillashtirish hamda jinoiy jazolarni liberallashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa jinoiy javobgarlik institutining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganishni taqozo etmoqda [2].

Jinoiy javobgarlik tushunchasi va uning huquqiy mohiyati

Jinoiy javobgarlik huquqiy javobgarlikning mustaqil turi bo'lib, shaxs tomonidan jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan taqdirda davlat nomidan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralarini anglatadi. Jinoiy



javobgarlikning mazmun-mohiyati jinoyat sodir etgan shaxsning qilmishiga huquqiy baho berish, uni javobgarlikka tortish va qonunda nazarda tutilgan jazoni qo'llashda namoyon bo'ladi [3].

Jinoiy javobgarlikning asosiy maqsadi nafaqat jinoyatchini jazolash, balki yangi jinoyatlarning oldini olish, shaxsni tuzatish va jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashdan iboratdir. Shu sababli zamonaviy jinoyat huquqida jazo bilan bir qatorda insonparvarlik, adolat va qonuniylik tamoyillariga ham alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 16-moddasiga muvofiq, Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat alomatlariga ega bo'lgan qilmishni sodir etish jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi [4]. Demak, jinoiy javobgarlikning yagona huquqiy asosi jinoyat tarkibining mavjudligidir.

Jinoiy javobgarlikning vujudga kelish asoslari

Jinoiy javobgarlik vujudga kelishi uchun sodir etilgan qilmishda jinoyat tarkibining barcha elementlari mavjud bo'lishi zarur. Jinoyat tarkibi jinoyatning yuridik modelini tashkil etib, quyidagi elementlardan iborat:

- jinoiyat obyekti;
- jinoiyatning obyektiv tomoni;
- jinoiyat subyekti;
- jinoiyatning subyektiv tomoni.

Jinoiyat obyekti deganda jinoyat tufayli zarar yetkazilgan yoki zarar yetkazish xavfi ostida qolgan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Masalan, o'g'rilik jinoyatida mulkiy munosabatlar, qasddan odam o'ldirishda esa inson hayoti jinoyat obyekti hisoblanadi [5].

Jinoyatning obyektiv tomoni qilmishning tashqi ifodasini aks ettiradi. U harakat yoki harakatsizlik, oqibat, sababiy bog'lanish, sodir etish usuli, joyi va vaqtini o'z ichiga oladi.



Jinoyat subyekti aqli raso va qonunda belgilangan yoshga yetgan jismoniy shaxsdir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga ko'ra, umumiy javobgarlik yoshi 16 yosh etib belgilangan bo'lsa-da, ayrim og'ir jinoyatlar uchun 13 yoki 14 yoshdan boshlab javobgarlik nazarda tutilgan [6].

Jinoyatning subyektiv tomoni esa shaxsning sodir etilgan qilmishga bo'lgan ruhiy munosabatini ifodalaydi. Bu ayb, qasd, ehtiyotsizlik, motiv va maqsad orqali namoyon bo'ladi.

Jinoiy javobgarlikning konstitutsiyaviy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jinoiy javobgarlikni qo'llash bilan bog'liq muhim demokratik prinsiplar mustahkamlangan. Xususan, aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishning asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Konstitutsiyaga ko'ra, hech kim sudning qonuniy kuchga kirgan hukmisiz jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilishi mumkin emas [7]. Ushbu prinsip shaxsning noqonuniy ravishda javobgarlikka tortilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Konstitutsiyada inson sha'ni va qadr-qimmatining daxlsizligi, qiynoqlarning taqiqlanishi, malakali yuridik yordam olish huquqi kabi normalar ham jinoiy javobgarlikni qo'llashda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Jinoiy javobgarlikning boshqa huquqiy javobgarlik turlaridan farqi

Jinoiy javobgarlik boshqa huquqiy javobgarlik turlaridan o'zining maqsadi, asoslari, qo'llaniladigan sanksiyalari va huquqiy oqibatlari bilan farqlanadi.

Avvalo, jinoiy javobgarlik faqat jinoyat sodir etilganda qo'llaniladi. Ma'muriy javobgarlik esa ma'muriy huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladi va ijtimoiy xavflilik darajasi jinoyatlarga nisbatan ancha past bo'ladi [8].



Fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning asosiy maqsadi buzilgan huquqlarni tiklash va yetkazilgan zararni qoplash hisoblanadi. Jinoiy javobgarlik esa davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Intizomiy javobgarlik mehnat, xizmat yoki o'quv intizomini buzganlik uchun qo'llaniladi. Bunday javobgarlik odatda ish beruvchi yoki vakolatli rahbar tomonidan qo'llaniladi va jinoiy javobgarlikdagi kabi sudlanganlik oqibatini keltirib chiqarmaydi [9].

Jinoiy javobgarlikning eng muhim farqli jihatlaridan biri uning faqat sud tomonidan qo'llanilishidir. Bundan tashqari, jinoiy javobgarlik sudlanganlik holatini yuzaga keltiradi. Sudlanganlik esa shaxsning huquqiy maqomiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatuvchi huquqiy oqibat hisoblanadi.

O'zbekistonda jinoiy javobgarlik institutini takomillashtirish masalalari

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida sud-huquq tizimini demokratlashtirish, inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda jinoyat qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash, odil sudlov sifatini oshirish va inson qadrini ulug'lash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [10].

Mazkur islohotlar doirasida jinoyat qonunchiligini liberallashtirishga alohida e'tibor qaratilib, ijtimoiy xavflilik darajasi katta bo'lmagan ayrim qilmishlarni jinoyatlar toifasidan chiqarish, ya'ni dekriminallashtirish amaliyoti keng qo'llanilmoqda. Buning natijasida fuqarolarga nisbatan jinoiy ta'qib choralarini qo'llash faqat zarur hollarda amalga oshirilishi, jazo muqarrarligi bilan bir qatorda adolat va insonparvarlik tamoyillarining ta'minlanishiga erishilmoqda. Ushbu yondashuv BMTning jinoyatchilikning oldini olish va jinoyat odil sudloviga



oid tavsiyalari hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari bilan hamohangdir [11].

Shuningdek, jinoiy jazolar tizimini takomillashtirish maqsadida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan muqobil jazolarni qo'llash ko'lamini kengaytirildi. Jumladan, axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari, ozodlikni cheklash va probatsiya nazorati kabi choralar amaliyotda keng qo'llanila boshlandi. Bu esa, o'z navbatida, jinoyat sodir etgan shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda uning ijtimoiy moslashuvini saqlab qolish, qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirish va jazoni individuallashtirish tamoyillarini ta'minlashga xizmat qilmoqda [12].

So'nggi yillarda probatsiya institutining huquqiy asoslari ham sezilarli darajada takomillashtirildi. Probatsiya xizmatlari faoliyatining rivojlantirilishi jazoni ijro etish tizimini insonparvarlashtirishga, mahkumlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishga hamda ularning jamiyatga qayta moslashuviga ko'maklashishga qaratilgan. Mazkur institutning rivojlanishi xalqaro amaliyotda keng qo'llanilayotgan "reintegratsiya" va "resotsializatsiya" tamoyillarining milliy qonunchilikka tatbiq etilganligini ko'rsatadi [13].

Sud-huquq sohasidagi islohotlarning yana bir muhim yo'nalishi tergov va sud jarayonlarida inson huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bilan bog'liqdir. Xususan, "habeas corpus" institutining qo'llanish doirasi kengaytirildi, sud nazorati mexanizmlari takomillashtirildi, advokatlarning protsessual huquqlari mustahkamlandi hamda dalillarni baholashda inson huquqlariga rioya etish talablari kuchaytirildi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ham inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilib, qiynoqlar, zo'ravonlik va inson qadr-qimmatini kamsituvchi har qanday munosabat qat'iyan taqiqlangan [14].

Bundan tashqari, jinoyat qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Birlashgan Millatlar



Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda boshqa xalqaro huquqiy hujjatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilib bormoqda [15].

Ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, korrupsion jinoyatlar uchun javobgarlik kuchaytirildi, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish mexanizmlari joriy etildi va davlat organlari faoliyatida ochiqlik hamda shaffoflik tamoyillari kengaytirildi. Shu bilan birga, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha odil sudlovni amalga oshirishning xalqaro standartlari asosida bolalar manfaatlarini ustuvor himoya qilish mexanizmlari takomillashtirilmoqda [16].

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida kiberjinoyatlar, elektron firibgarlik, noqonuniy axborot tarqatish, shaxsiy ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish kabi yangi turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish ham dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Shu sababli jinoyat qonunchiligida axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan normalar takomillashtirilib, raqamli makonda sodir etiladigan huquqbuzarliklar uchun javobgarlik mexanizmlari kuchaytirilmoqda [17].

Umuman olganda, Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari jinoiy javobgarlik institutining insonparvarlik, adolat, qonuniylik va huquq ustuvorligi tamoyillari asosida yanada takomillashuviga xizmat qilmoqda. Bu esa fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish, jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash hamda demokratik huquqiy davlat barpo etishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xulosa: Jinoiy javobgarlik huquqiy javobgarlikning eng qat'iy va murakkab turi bo'lib, faqat jinoyat sodir etilgan hollarda yuzaga keladi. Uning asosini jinoyat tarkibining mavjudligi tashkil etadi. Jinoiy javobgarlik boshqa javobgarlik turlaridan ijtimoiy xavflilik darajasi, davlat majburlovining kuchliligi, faqat sud tomonidan qo'llanilishi va sudlanganlik oqibatini keltirib chiqarishi bilan ajralib turadi.



O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari jinoiy javobgarlik institutining yanada takomillashishiga, inson huquqlari va erkinliklarini samarali himoya qilishga hamda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1] O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent, 2025.
- [2] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
- [3] Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. – Toshkent: TDYU, 2023.
- [4] O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 16-modda.
- [5] Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. – Toshkent: Adolat, 2022.
- [6] O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 17-modda.
- [7] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
- [8] O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
- [9] O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – Toshkent, 2023.
- [10] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sud-huquq tizimini takomillashtirishga oid farmon va qarorlari, 2021–2025-yillar.